



WEDDING CEREMONIES OF IRANIANS IN UZBEKISTAN

Sarvar Botirov

Teacher of the Department of Social Sciences

Tashkent State Medical University

E-mail: sarvarbotirov1771@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Iranians, Uzbekistan, wedding ceremonies, customs, traditions, marriage, family.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article studies the traditional wedding ceremonies and customs of Iranians living in Uzbekistan. It provides detailed information about the family values of Iranians, their attitude to marriage, and the specific aspects of the wedding preparation process, including choosing a bride, exchanging wedding rings, the main stages of the wedding, traditional dishes and dances. It also analyzes the changes and preserved parts of these ceremonies in modern conditions. The main purpose of the article is to scientifically study and convey to future generations the wedding traditions of Iranians, which are an integral part of the multinational culture of Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDAGI ERONIYLARINING TO'Y MAROSIMLAR

Sarvar Botirov

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

E-mail: sarvarbotirov1771@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Eroniylar, O'zbekiston, to'y marosimlari, urf-odatlar, an'analar, nikoh, oila.

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda yashayotgan eroniylarning an'anaviy to'y marosimlari va urf-odatlarini o'rganadi. Unda eroniylarning oilaviy qadriyatlari, nikohga bo'lgan munosabatlari hamda to'y tayyorgarlik jarayonining o'ziga

xos jihatlari, jumladan, kelin tanlash, nikoh uzuklari almashtirish, to‘yning asosiy bosqichlari, an’anaviy taomlar va raqslar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda ushbu marosimlarning o‘zgarishi va saqlanib qolayotgan qismlari ham tahlil qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston ko‘pmillatli madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan eroniyning to‘y an’analarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazishdir.

СВАДЕБНЫЕ ЦЕРЕМОНИИ ИРАНЦЕВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сарвар Ботиров

Преподаватель кафедры социальных наук

Ташкентский государственный медицинский университет

E-mail: sarvarbotirov1771@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: иранцы, Узбекистан, свадебные церемонии, обычаи, традиции, брак, семья.

Аннотация: В данной статье изучаются традиционные свадебные церемонии и обычаи иранцев, проживающих в Узбекистане. Представлена подробная информация о семейных ценностях иранцев, их отношении к браку и специфических аспектах подготовки к свадьбе, включая выбор невесты, обмен обручальными кольцами, основные этапы свадьбы, традиционные блюда и танцы. Также анализируются изменения и сохранившиеся части этих церемоний в современных условиях. Главная цель статьи – научное изучение и передача будущим поколениям свадебных традиций иранцев, являющихся неотъемлемой частью многонациональной культуры Узбекистана.

Kirish. Respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma’naviy merosimizga davlat miqyosida e’tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an’anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmaslik lozim. Bu borada qadimiy tarixga ega bo‘lgan milliy marosimlarning xalq turmishi va an’anaviy

madaniyatida tutgan oʻrni, ular genezisi va oʻziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasida tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston Respublikasida 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladiki, ularning oʻziga xos urf-odatlarini, marosimlari, anʼanalari va madaniyati mavjud boʻlib, hukumatimiz tomonidan bu marosim, anʼanalar va madaniyat rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilishi konstitutsiyaviy norma darajasiga koʻtarilgan. Biz yurtimizda yashovchi turli millat va elatlarning marosimlarini oʻrganar ekanmiz, avvalo, marosim tushunchasiga taʼrif berishimiz lozim. Marosim atamasi nisbatan tor tushuncha boʻlib, u shu xalq hayotining maʼlum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, koʻpincha ramziy xarakterga ega boʻlgan va maʼlum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat [1]. Shuningdek, marosim – inson hayotining moddiy va maʼnaviy turmushining talab va ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning maʼlum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini koʻrsatuvchi asosiy belgilarni oʻzida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqachasiga, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy xarakterlarga ega boʻlgan hayotiy tadbir [2].

Mamlakatimizda yashaydigan eroniylar etnografik guruh boʻlib, Samarqand eroniylari asrlar davomida har jabhada oʻziga xos madaniyatga ega. Ularda toʻy marosimlarining oʻziga xosligi bugungi kungacha alohida yortilmagan. Biroq eroniylarning toʻy marosimlar oʻzbek va tojik xalqlaridan ajralib tursa-da, umumiylik jihatlari kuzatiladi.

Oʻzbekistondagi eroniylar oʻrtasida nikoh toʻylarining ham oʻziga xos jihatlari qadimdan mavjud boʻlib, hozirda ham ular amalda bajarilib kelinadi. Kuyov tomonidan qiz tomoniga kelgan sovchilarga, albatta, bir martada javob berilmaydi. Sovchilik turkiy xalqlar va forslarning qadimiy odatlaridir. Mahmud Koshgʻariy “Sovchi - kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi” deb yozgan [3]. Sovchilarga rozilik berilgach, boʻlajak qaynona uning qulogʻiga sirgʻa yoki qoʻliga uzuk taqib ketadi. Sovchilikka borishdagi kelin tomondan rozilik olish, yaʼni unashtirish – “shirinxoʻra”, “fotiha qilinish”, “non sindirish” deyiladi. Toʻydan oldin oʻtkaziladigan marosimlar – erkaklarda “oqsoqollar kengashi”, “karda” marosimi, xotin-qizlarda “parchaboʻron” (kelin liboslarini bichish va tikish) kabi odatlar shular jumlasidandir. Boʻlajak kelin sovchilar va kuyovning yaqin qarindoshlari koʻzidan hayo yuzasidan qochib yurgan, oʻz navbatida kuyov ham hayo qilib, kelin tomonga koʻrinmay yurgan. Qiz unashtirilgandan keyin toʻygacha boʻlgan oraliqda nishonlanadigan bayramlar munosabati bilan, shuningdek, yangi mevalar chiqib qolsa, ularning saralaridan tanlanib, yigit tomonidan qiz tomonga sovgʻa-salomlar sifatida yuborilgan.

Bu marosim “hayitlik” deyiladi. Kelin va kuyovga atab maxsus eng chiroyli gazlamalardan yoki yuksak did bilan quroq ko‘rpachalar tikilgan [4].

Ilgarilari qiz tomonida o‘tkaziladigan to‘yni “hinobandon” deyishgan. Bunda kelin va uning dugonalari qo‘llariga qo‘yib bog‘langan hinolar ochiladi. Kuyov tomonidan kelgan vakila ayollar yopinib olgan kelinga sovg‘alar beradilar. Kelin va kuyovning roziliklari olinib, nikoh o‘qiladi. Shu kuni uning sochlarini mayda qilib o‘radilar, qulog‘i yonidan zulf kesadilar. Bu uning turmushga chiqqanidan dalolat beradi. Ziyofat tashkil etiladi. Qizlar ashula aytib, raqs tushadilar. Hino qo‘yish odati eroniyalarda hozir kunda ham salanib qolgan [5].

Kelin tomonidan kuyov uchun tayyorlangan sarpolardan iborat sovg‘alar – “g‘unchasarp” to‘y kuni kuyov tomoniga yuboriladi. Maxsus mehmonlar chaqirilib, ziyofat uyushtiriladi. O‘tgan marhumlarni eslab, ularni rozi qilish maqsadida, ruhlariga Qur‘on tilovat qilinadi. Shundan so‘ng kuyovga otasi yoki piri badavlat kishi kuyovlik liboslarini kiydiradi, boshidan sochqilar sochib tabriklashadi [6].

Kelinni tushirib olishdan chamasi ikki soatlar oldin “Nikoh oshi” marosimi o‘tkazilib, mahalla yoshi kattalariga ziyofat beriladi, chamasi bir soatlar oldin esa qiz tomonida uni kuzatish marosimi o‘tkaziladi. Bunda kelinning sochi mayda qilib o‘rilib, uning uchlariga nuqrapo‘pak taqiladi, bo‘yniga qahrabo munchoq, ko‘kragiga tangagardon taqilib, zarko‘ylak kabi to‘y liboslari kiygiziladi. Kelinning boshida kumushdan yasalgan taqinchoq – farak taqiladi. U qosh taqinchoqdan birmuncha farq qiladi. Farakning bo‘rtib chiqqan gumbaz shaklidagi uchlari bo‘yalgan harir* qush patlari bilan bezatiladi. Kelinning boshiga chetlariga bezaklar berib tikilib, oyog‘igacha yopib turuvchi chodira shaklidagi nozik oppoq to‘r – katfa tashlanadi. Oyog‘iga kelinlik mahsisi kiygiziladi. Bezak ko‘rpachada u yuzini qiblaga qaratib tik qo‘yiladi. Qizning otasi, agar otasi bo‘lmasa mahram hisoblangan yoshi ulug‘ yaqin qarindoshi ikkita non qo‘yib, beli baquvvat bo‘lsin, chidamli bo‘lsin degan niyatda uning belini bog‘laydi. Barcha eng yaqin qarindoshlari unga oq fotiha tilab, xayrlashadilar [7].

Shu paytning o‘zida kuyov tomonidan kelinni olib kelish uchun kelgan 5-6 nafar oqsoqol erkaklar va ayollarga osh beriladi. Yosh-yalanglar xalq termalaridan tashkil topgan “Yor-yor” aytishadi. Odat bo‘yicha kelinni olib kelish uchun kuyov kelin tomoniga bormaydi.

Yor-yor so‘zlarining bir necha matnlari mavjud. Jumladan, “Olma otdim otganga”, “Sandiq tepdim ochildi” va boshqalar. Shunisi e‘tiborliki, samarqandcha yor-yorlar ichida:

Suv keladi Maridan, yor-yor, yoroney,

Maridanam naridan, yor-yor, yoroney...

kabi baytlar ham uchraydi. Bu Marvdan ko‘chirib keltirilgan Samarqand va Buxoro eroniylarining mashhur xalq og‘zaki ijodi hisoblangan “Mavrigi”lar kabi tilida saqlanib qolgan ijod namunasidir [8].

Yosh-yalanglar kelinni mash’ala yog‘dusida, yor-yor sadolari ostida olib kelishadi. Ilgarilari kelin ot yoki aravada olib kelingan. Kuyov kelinni tushirib olishdan oldin bir juft olmani kelin kelgan tomonga qarab otadi. Kelinga qo‘shilib kelgan yosh bolaga atalgan sovg‘ani bergach, kelinni tushirib oladi va yovuz kuchlarni yondirish, issiqlik va yorug‘lik bo‘lsin degan maqsadda, yonib turgan gulxan atrofida uch marta birga aylanib, to‘yxonaga o‘tishadi [9].

XX asrning 80-yillariga qadar nikoh to‘ylari “kelin tomosha” shaklida o‘tkazilar edi. Bunda qadimgi odatlar bo‘yicha kelinni tushirib olishgach, erkaklar ziyofatni yeb tezda tarqalishgan. Xotin-qizlar esa kelinni bezatib, qibla tomonga qaratib qo‘yishgan. Kelin bezatilgan holda bo‘lib, betiga niqob tashlangan bo‘ladi. Uning atrofini to‘yga kelgan ayollar davra qurib, o‘rab olishadi. Dasturxonlarga noz-ne‘matlar qo‘yiladi. O‘yin va raqslar avj oladi. Qadim odat bo‘yicha to‘yni qizdirish maqsadida to‘y egasining yaqin kishilari sozandalar atrofiga to‘planib oladi va musiqa ohangiga mos ravishda qarsak chalishgan, shuningdek, musiqaga jo‘r ovoz bo‘lish uchun ikkita qoshiq yoki qayroq toshlarni bir-biriga urish usullarini qo‘llashgan. Bu odatlar hozirgacha saqlanib qolgan [10].

O‘rni kelganda ta’kidlab o‘tish joizki, ayollar davrasida o‘yinga tortilgan ayol hech qachon birdaniga musiqa ohangiga raqsqa tushmagan. Avvaliga bir marta hayo bilan qo‘lini yarim ko‘targan holda davra aylanib chiqqan. Ikkinchi davra aylanishda tortinchoqlik bilan qo‘lini yana yuqori ko‘targan. Undan keyin esa odob bilan o‘yinga tushishga navbat yetgan.

Qibla tomonga qaratib qo‘yilgan kelinning yuzidan niqobini olish marosimi o‘tkazilgan. Bunda 4-7 yoshlar chamasi o‘g‘il bolaning qo‘liga serfarzand bo‘lsin degan niyatda mevali daraxtdan sindirib olingan 30-40 santimetrlar chamasi xivich (novda) beriladi. Bola biror kishi yordamida borib qo‘lidagi cho‘p bilan niqobni ko‘taradi. Niqob olingach, kelin ko‘zlarini yumib oladi. O‘ng qo‘lidagi chiroyli bezaklar bilan tikilgan, o‘lchami 40x40 santimetrlar chamasi bo‘lgan ro‘molcha bilan og‘zini yopadi. Dasturxonga osh tortilib, to‘y tamom bo‘lgunicha, kelin ko‘zini ochmaydi. Bu hayo belgisi [11].

Asosiy mehmonlar tarqalib, kelin va kuyovning yaqin odamlari qolgach, “qo‘lba-qo‘l” deb atalgan marosim o‘tkaziladi. Bunda kuyovlik libosidagi domod (kuyov) kelinning yoniga olib kelinadi. Ikkalasi bir-biriga yonma-yon qilib qo‘yiladi. Ularning boshlari birlashtirilib, oyna tutiladi. Kelin va kuyov bir-birlarini oynada ko‘radilar. Bu kabi odatlar o‘zbeklar, tojiklar va veda dinidagi hindlarda ham bor [12].

O‘zaro “oyoq bosdi” udumi shu paytda o‘tkaziladi. Bu kabi odat Farg‘ona vodiysida ham mavjud bo‘lib, ikki tomon qudalarining vakillari uni bilintirmay kuzatadilar. Go‘yo bunda agar qiz birinchi bo‘lib kuyovning oyog‘ini bossa, oilada, turmushda uning mavqei baland bo‘ladi, aksincha bo‘lsa kuyov hukmron bo‘ladi deyilgan [12]. Ikkalasiga sharbat ichiriladi va yovuz ko‘zlardan himoya qilish maqsadida hazorispan (isiriq) tutatiladi. Piri badavlat otaxon yoki onaxon Qur‘oni Karimning “Yusuf” surasi bitilgan sahifasini ochib, ularning boshlariga qo‘yadi. Duo o‘qilib, ikkala yoshlarga baxt tilanadi. Shundan so‘ng shu marosimda ishtirok etayotgan kuyovning xotin-qizlardan iborat eng yaqin qarindoshlari kelinga atab olib kelgan sovg‘alarini tarqatadilar. Bu marosimda ham musiqa va o‘yinlar bo‘ladi. Kelin-kuyov o‘z uylariga kirayotganda, ularning oyoqlari ostiga poyandoz solinadi. Ular poyandoz ustidan yurib o‘tishgach, bo‘ydoq yigitlar “biz ham shu kunlarga yetaylik” degan niyatda uni tortib olib qochishadi. Bu kabi urf-odatlarini o‘zbek milliy to‘ylarida ham kuzatish mumkin. Ayrim o‘zbek to‘ylarida poyandoz kuyov va kelin tomon erkak yigitlari o‘rtasida bellashuv tarzida bo‘lib, qaysi tomon yigitlari kuchliligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan.

To‘y kunining ertasiga kelin yaqin qarindoshi – opasi yoki yangasi tomonidan qadimiy kelinlik libosida salomga olib chiqiladi. Oradan bir-ikki kun o‘tgach xotin-qizlar “joy yig‘di” marosimini o‘tkazishadi. Bu kun kelin tomondan 4-5 nafar ayollar kelib, kelinning uyini bezatish marosimida ishtirok etadilar. Kelinning bisotidagi bor ko‘ylak va ko‘ylakbop gazlama materiallar, qo‘lda tikilgan sochiqlar, so‘zana-kashtalar, zardevorlar, bug‘chapech-u joypo‘shlar hammasi o‘z o‘rnini olib, uy yasatiladi. Albatta, ziyofat tashkil qilinadi. Ma’lum kunlar o‘tgach kuyov chaqirdi marosimi o‘tkaziladi (ilgarilari u hatto 5-6 oydan keyin o‘tkazilgan). Bu marosimni “Domod salom” deyishadi. Marosimning birinchi kuni kuyov kelin va boshqa qarindoshlari bilan kelin tomonga keladi. Ikkinchi va uchunchi kuni esa kuyov bir-ikki yaqin qarindoshi yoki do‘sti bilan kelin ota-onasining uyiga keladi. Shundan so‘ng kelin va kuyovlarning “oyog‘i ochiladi”, ya’ni borish-kelishga ruxsat beriladi. Chilla davrida kuyov kelinni tashlab uzoq joyga va uzoq muddatga ketib qolmaydi yoki kechqurun bemahalgacha qolib ketmaydi [13]. Chilla saqlash o‘zbek va tojik xalqlarida ham uchraydi.

Qiz tomon qudalarning kelishiga imkon berish maqsadida maxsus “quda tanish” marosimi o‘tkaziladi. Kelin tomonidan 20-25 nafar erkak va ayollar kuyov tomonga ziyofatga taklif qilinadilar. Albatta kelin tomon qarindoshlari yangi oila uchun ko‘zga tashlanuvchi sovg‘alar bilan kelishadi. Shundan keyin kelin tomonning kelib turishlari uchun imkon yaratiladi. Bu kabi marosimlar eroniylarning atrofida joylashgan o‘zbeklarda uchraydi. Marosim o‘zbeklarda “ota ko‘rdi” deb nomlanadi.

Yangi dunyoga kelgan bolani beshikka belash marosimi “gahvorabandon” deyiladi. Bolani piri badavlat ayol beshikka belagach, uning onasiga butun non tutiladi. Ona nonni bir tishlagach, bolalar uni olib qochishadi va bo‘lishib yeyishadi.

Aqiqa marosimini o‘tkazish qadimiy odatdir. Sobiq sho‘rolar davrida bu tadbir eskilik sarqiti yoki xurofot sifatida qoralangan va shuning natijasida deyarli unutib yuborilgan. Ammo, Islom payg‘ambaridan qolgan bu marosim Respublikamiz mustaqilligi sharofati bilan qayta tiklandi.

Xalqning uzoq o‘tmish davrlardan buyon o‘tkazilib kelayotgan ehsonlik berish odatlaridan biri bo‘lgan sunnat to‘ylarini o‘tkazishdan oldin “kengash” degan marosim o‘tkazilib, unda qarindoshlarga va mahalla ahliga osh berishadi va o‘tganlarni eslab, Qur‘on tilovat qilishadi. Shundan keyin to‘y bolaga sho‘x musiqa sadolari ostida to‘y liboslarini eng piri badavlat odam kiydiradi. To‘y marosimi odatda erkaklar uchun ertalabdan boshlab, kunning birinchi yarmi davomida, ayollar uchun esa tush paytidan boshlab o‘tkazilgan. Erkaklar uchun to‘y marosimi tugallanish arafasida to‘y bola o‘zi uchun qalin to‘shaklardan baland qilib solingan joyga yotqiziladi. Maxsus sartarosh-usta xatna qilgach, bolani tabriklash uchun yaqinlar kelishadi va uning sovg‘a xaltachasiga pul qo‘yishadi. Hozirgi kunda xatna qilish tibbiy muassasalarda amalga oshirilmoqda [13].

Ayollar uchun o‘tkazilgan to‘ylar “havodorlik” marosimi bilan tugaydi. Bunda “Havodor-e, havodor, onasiga (ammasiga, xolasiga va hokazo yaqin ayol qarindoshlarni tilga olishib) vafodor” kabi so‘zlar bilan aytiladigan qo‘shiq sadolari ostida mis, sopol, chinni patnislarda (odatda ularni “la‘li” deyishadi) yaqin qarindoshlarga ostiga shirinliklar to‘shab kiyimbop materiallardan iborat sovg‘alar ulashiladi [14].

Ta’kidlab o‘tish lozimki, Samarqand eroniylarining to‘ylarida va turli tantana marosimlarida kuy va qo‘shiqlar o‘zbekona bo‘lish bilan birgalikda, ozarbayjoncha hamda eroncha ohanglarda ham yangraydi.

Ammo davrlar o‘tishi bilan to‘ylarning shakli sezilarli darajada o‘zgardi. Turmush tarzining yaxshilanishi natijasida turli keraksiz odatlar ham o‘ylab topildi. Behuda sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘yildi, xullas to‘y o‘tkazish murakkablashib ketdi. Respublikamizning barcha go‘shalarida bo‘lganidek, hozirgi kunda Samarqand eroniylari orasida oqsoqollar va faollar tashabbusi bilan to‘ylarning kam chiqim bo‘lishi uchun kurash olib bormoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda eroniylar etnografik guruhi, xususan, Samarqand eroniylarining turli xil to‘y marosimlarida farqli jihatlar bo‘lsa-da, o‘zbek va tojik xalqlari bilan umumiylik jihatlari kuzatiladi. Turli xil marosimlar o‘zbek va eroniylar boshqa-boshqa nomlar bilan atalsa-da, o‘tkazilish jarayonida umumiylikni ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi

vaqtga kelib ilgari mavjud farqlar yanada yo‘qolib bormoqda. Eroniylarning to‘y marosimlarda o‘zbeklarning to‘y marosimlardan unchalik ham farq qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саримсоқов Б. Маросим фольклори. – Т., Фан, 1986. – Б. 12.
2. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2007. – Б. 124.
3. Маҳмуд Кошгарий. Девону лугатит турк. 3-жилд. - Тошкент, 1963. - Б. 169.
4. Холов Ҳ. Хўжасаҳат ва хўжасаҳатликлар. – Тошкент, 2020. – Б.132-133.
5. Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani Chortut MFY, 2025-yil.
6. Алиева Ф. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. – Тошкент, 2018. – Б. 103-104.
7. Harir – yurqa, nozik, nafis. <https://share.google/riC4hWxm8UX76QkB3>
8. Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Tayloq tumani Xonchorbog‘ MFY, 2025-yil.
9. Алиева Ф. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. – Тошкент, 2018. – Б. 104.
10. Dala tadqiqotlari. Samarqand viloyati Tayloq tumani Xonchorbog‘ MFY, 2025-yil.
11. Холов Ҳ. Хўжасаҳат ва хўжасаҳатликлар. – Тошкент, 2020. – Б.134.
12. Алиева Ф. Ватан ягонадир, Ватан биттадир. – Тошкент, 2018. – Б. 106.
13. Аширов А. Этнология масалалари. Ўзбекистон тарихи. - Тошкент, 2003, № 2.- Б. 43.
14. Холов Ҳ. Хўжасаҳат ва хўжасаҳатликлар. – Тошкент, 2020. – Б.137-138.